

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.R.Kapizova, I.I.Zokirov Mevali bog'lar koksidlari entomofaglarining sistematik tahlili (Sharqiy Farg'ona hududi misolida)	101
R.N.Mo'minova Qoradaryo havzasi yuksak suv o'simliklarining bioekologik xususiyatlari.....	106
S.D.Dadaev, D.A.Paluaniazova О фаунистических и экологических особенностях гельминтов мелкого рогатого скота Каракалпакстана	110
S.B.Orifov, F.R.Xolboyev Hind chumchug'i- <i>Passer indicus</i> ning O'zbekistonda ko'payish xususiyatlari va ahamiyati	116
N.K.Devonova, G.S.Mirzayeva, B.E.Soyibnazarov, Sh.E.Tursunboyeva Surxon davlat qo'riqxonasining tangachaqanotli hasharotlari (insecta: lepidoptera)	121
M.A.Axmadjonova Farg'ona vodiysida tarqalgan <i>Sitona</i> Germar, 1817 avlodi (Coleoptera: Curculionidae)ga mansub turlarning bioekologik xususiyatlari.....	127
V.A.Karimov, M.Nazarov Jadal texnologiyada arpa yetishtirish	133

GEOGRAFIYA

Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev Aholi zichligini aniqlashda yer sig'imi uslubidan foydalanish	142
I.O.Sulaymonov O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning ayrim jihatlarini	146
Q.S.Yarashev, A.I.Xayitbayev Xorazm viloyati voha landshaftlarining shakllanishi va rivojlanishi	150
I.Aripov, R.Mariya Sirdaryo viloyatida sho'rlangan hududlarni melioratsiyalashtirish samaradorligining iqtisodiy baholanishi	154
A.U.Usmonov, A.K.Ergashev Shahar aholi manzilgohlari shakllanishi va rivojlanishining nazariy asoslari (Vobkent tumani misolida)	161
O.N.Xakimov Kollektor geotizimlaridagi relyefning havzaviy strukturasi	166
O.N.Xakimov Yer yuzasini kartografik ideallashtirish va uning relyef strukturasi tadqiq qilishdagi o'rni.....	178

ILMIY AXBOROT

Y.E.Altiboyev Tarixiy manbalarda keltirilgan Qashqadaryo daryosi to'g'risidagi ma'lumotlar tahlili	190
A.A.Akramov Oliy ta'lim tizimida ekologik o'quvni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minotini takomillashtirish modeli.....	195
M.J.Urinov Kambag'allikning sivilizatsion ko'chish dinamikasi va uning o'ziga xos xususiyatlariga falsafiy tavsif	199
B.F.Abdishukurov Markaziy Osiyodagi hududiy-chegaraviy muammolar (1924-yildan keyingi voqealar xususida).....	203
A.M.To'rayev Talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish asosida kasbiy takomillashtirish	207
Sh.M.Kadirov Talabalarda tarixiy voqelikka nisbatan analogik xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish	210



UO'K:930;94 (100)

MARKAZIY OSIYODAGI HUDUDIY - CHEGARAVIY MUAMMOLAR (1924-YILDAN KEYINGI VOQEALAR XUSUSIDA)**ТЕРРИТОРИАЛЬНО-ГРАНИЧНЫЕ ПРОБЛЕМЫ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (В ЧАСТНЫХ СОБЫТИЯХ ПОСЛЕ 1924 ГОДА)****TERRITORIAL - BORDER PROBLEMS IN CENTRAL ASIA (IN PARTICULAR EVENTS AFTER 1924)**

Abdishukurov Bobomurod Faxriddin o'g'li 
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Turkistonda milliy-hududiy chegaralash arafasida Turkistondagi siyosiy ahvol, mustabid tuzumning chegaraga ajratish siyosatining maqsad va mohiyati, milliy-hududiy chegaralanishdan keyingi davrlarda yuzaga kelgan etnik mojorolar, yangi tashkil etilgan respublikalarning chegaralarining murakkab va muammoli jihatlari qanday holda kechganligi, shuningdek Adib Xolid, Edward Stourton, Peter Zeihan, Francine Hirsch, P.Loung, Alexander Morrison kabi tadqiqotchilarning Markaziy Osiyo hududidagi etnik muammolarini tatqiq qilishi xususida fikr yuritiladi.

Abstract

In this article, the political situation in Turkestan on the eve of national-territorial delimitation, the purpose and essence of the delimitation policy of the authoritarian regime, the ethnic conflicts that occurred in the period after the national-territorial delimitation, how the complex and problematic aspects of the borders of the newly established republics were overcome, as well as Adib Khalid, Edward Studies of ethnic problems in Central Asia by researchers such as Stourton, Peter Zeihan, Francine Hirsch, P. Loung, Alexander Morrison are discussed.

Аннотация

В данной статье рассматривается политическая ситуация в Туркестане накануне национально-территориального размежевания, цель и суть демаркационной политики авторитарного режима, этнические конфликты, возникшие в период после национально-территориального размежевания, как сложные и были преодолены проблемные аспекты границ вновь созданных республик, а также Адиб Халид, Эдвард. Обсуждаются исследования этнических проблем в Центральной Азии такими исследователями, как Стоуртон, Питер Зейхан, Франсин Хирш, П. Лунг, Александр Моррисон.

Kalit so'zlar: "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va tarixiy taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik", panislomizm, olabujilar, panturkizm, jadidlar, bosmachilar, formatsion qayta qurish, kommunizmga sakrash, tendensiya, evolutsion teleologiyasi, aktyor, demarkatsiya qilish, delimitatsiya.

Key words: "Central Asia: common history and common future, cooperation for sustainable development and historic progress", pan-islamism, olabujis, pan-turkism, jadids, printmakers, formative reconstruction, leap to communism, tendency, evolutionary teleology, actor, demarcation, delimitation.

Ключевые слова: "Центральная Азия: общая история и общее будущее, устойчивое развитие и сотрудничество во имя исторического развития", панисламизм, олабуджи, пантюркизм, джадида, прессмены, формативная реконструкция, скачок к коммунизму, тенденция, эволюционная телеология, актер, демаркация, делимитация.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017-yil 10-noyabrda Samarqanda o'tkazilgan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va tarixiy taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi xalqaro konferensiyada so'zlagan nutqida: "Biz chegaraoldi muammolarini hal etib, mamlakatlarimiz o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlikni yanada kengaytirish yo'lida mustahkam poydevor yaratamiz. Biz davlat chegaralarini delimitatsiya qilish borasidagi muzokoralarda yuzaga kelgan murakkab muammolarni hal etish bo'yicha izchil yo'lga qo'yilgan va birgalikda chuqur o'ylab amalga oshirilayotgan ishlarimizni davom ettirish zarur, deb hisoblaymiz. Biz oqilona murosa va o'zaro teng

kelishuv asosida, o'zaro manfaatlarimizni hisobga olgan holda, bu o'ta dolzarb muammoni tezda hal etamiz, deb ishonaman [1]"- degan fikrlarni bildirgan edi. Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ayon bo'ladiki, Markaziy Osiyoda hali hamon yechimini topmagan etnik, hududiy-chegaraviy muammolar bor.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maqola interpretatsiya, induksiya, deduksiya, determinizm, tahliliy, muammoviy-davriy, qiyosiy va tizimli tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Mavzuni tadqiq qilishda mamlakatimizda olib borilgan keng islohotlar, tarixni xolis o'rganishga qaratilgan huquqiy asoslardan keng foydalanildi. Shuningdek tadqiq mavzusi bo'yicha D.Alimova, X.Shodmonov, N.Mustafayeva, E.Rajabov, G.Mo'minova, O.Pugivkina, A. Doniyorov va boshqa tadqiqotchilar asarlarida tadqiq qilingan. MDH davlatlaridan S.Abishin, A.V.Babain, Ye.L.Dmitriyeva, xorijiy tadqiqotchilardan P.J.Luong, Adeeb Khalid, Edward Stourton, Francine Hirsch, Alexander Morrison va boshqalarning ilmiy maqola va va tanqidiy ma'ruzalarini tahlil qilgan holda o'rganildi.

RKP (b) MKning Tashkiliy byurosi o'zining 1924-yil 31-yanvardagi majlisida boshqa masalalar bilan bir qatorda Turkiston, Buxoro, Xorazm respublikalarining milliy-hududiy chegaralanishi to'g'risidagi masalani ham ko'rib chiqdi va Ya.E.Rudzutakka mazkur respublikalarning mas'ul xodimlari bilan birgalikda bu g'oyani amalda qanday ro'yobga chiqarish mumkinligini oldindan muhokama qilib ko'rishni topshirdi. Mazkur g'oyaning paydo bo'lishi o'zining ilk tarixiga ega bo'lib, u 20-yillarning dastlabki davrdagi voqealar bilan chambarchas bog'liq edi. Biroq, haqiqiy sabablari o'z ildizlari bilan ancha ilgari borib taqaladi. Bolsheviklar partiyasining markaziy organi qarori bilan chorizmning Turkiston mustamlakasi boshqarish sohasidagi imperiyacha siyosati prinsiplariga sodiqligini isbotladi, mazkur siyosat Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizomga (1891 yil) muvofiq o'tkazib kelinayotgan edi. O'rta Osiyoning ma'muriy-hududiy xaritasini qaytadan tuzish borasidagi o'z miqyoslari va oqibatlari bilan o'lkani bo'lgan bolshevikcha bu harakat chorizm nizomining takomillashgan shaklini amalda ro'yobga chiqarish uchun qo'yilgan dastlabki qadam edi. Bolsheviklar O'rta Osiyo mintaqasi xalqlarining ozodlik harakatiga chorizm nisbatan kam bo'lmagan izchillik va murosasizlik bilan munosabatda bo'lib kelayotgan edilar. Ular imperiyachilik siyosatining chinakam vorislari sifatida Turkiston mustaqilligi uchun ko'tarilgan har qanday harakatni panislomizm va panturkizm imperiyacha siyosat uchun xalqni qo'rqitadigan doimiy "olabujilar"ga aylantirilgandi. Ularni podsho hukmdorlari ham, bolsheviklar rahbariyati ham musulmon aholini Rossiyadan uzoqlashtiradigan va Turkiya homiyligida birlashtirishga qaratilgan harakat deb hisoblardi. Sharqiy Rossiya xalqlarining o'z kuch-g'ayratlarini islom dini va turkizm asosida birlashtirishga qaratilgan har qanday urinishlari tashqi kuchlarning «yagona va bo'linmas» Rossiyaga tajovuz qilishi deb baholanardi. Mintaqadagi milliy ozodlik harakatining barcha oqimlari xalqlarni jiplashtirish mafkurasi sifatida turkizmning realligini va ta'sirchanligini dalolat berardi. Uning shiorlarini mazkur harakatning ayrim bosqichlarida ishtirok etgan barcha ijtimoiy kuchlar, shu jumladan: Turkiston Muxtoriyati, milliy demokratik harakat (jadidlar), istiqolchilar harakati ("bosmachilar" deb atalgan harakat) qo'llab-quvvatladi. Kommunistik harakat ham turkizm ta'siridan chetda qolmagan edi [2]. Bolsheviklarning milliy masaladagi siyosati mohiyatini ichidan bilgan, Rossiya bolsheviklar rahbariyatining imperiyacha jizzakiligi amalda kuchayib borayotganligi va duch kelishi muqarrar bo'lgan bu real xavfqa qarshi kurashni avj oldirishdan iborat qa'tiy extiyojni his qilgan mahalliy-kommunistlar rahbarlari uchun turkizm o'z vatani ozodligi va mustaqilligi yo'lida birlashish mafkurasi ulkan imkoniyatlarga ega bo'lgan birdan-bir vosita bo'lib xizmat qilgan edi. Tarixning guvohlik berishicha, sovet tuzumi doirasida ro'y bergan tarkibiy o'zgarishlar avval boshdanoq faqat imperiyaning emas, balki mustabid jamiyatning ham tayanch andozalariga asos solishni belgilab berdi. Oktabr to'ntarishdan keyin lenincha hukumat tominidan o'tkazila boshlagan "kommunizmga sakrash" siyosati markscha "formatsion qayta qurish" loyihasining mustabid-qatag'onchilik tabiatini juda yaqqol aks ettirdi. Biroq ma'muriyatchi-mustabid tizimining hisob bo'yicha birinchi modeli bo'lib qolgan "harbiy kommunizm" aslida bolshevistik tuzumning hali zaif bo'lgan negizlariga putur yetkazadi [3]. O'zining mutlaqo markazlashganligi, xalq ommasining manfaatlari va ijodini, milliy ehtiyojlari va intilishlarini inkor qilishi bilan "harbiy kommunizm" ham butun Rossiya, ham sovetlashtirilgan O'rta Osiyo ijtimoiy hayotining barcha sohalarida o'ta keskin tanglikni vujudga keltirdi. 1917-yilgi inqilobdan so'ng mintaqalarda Sovet hokimiyati g'alaba qozondi va Turkiston, Buxoro va Xorazm

ILMIY AXBOROT

respublikalari tashkil etildi. 1920-1924 yillar davrida murakkab va noaniq jarayonlar ushbu respublikalar o'rnida O'zbekiston SSR, Turkmaniston SSR, va Tojikiston ASSR tashkil etildi, ular O'zbekiston SSR, qora-qirg'iz (qirg'iz) avtonom viloyati tarkibiga kirdi, u RSFSR va Qozog'iston ASSR tarkibiga kirgan Qoraqalpoq avtonom viloyatitakibiga kirdi[4]. Biroq, 1924-yilda Milliy-hududiy chegaralanish tugamadi, chunki 1929-yil may oyida tojik avtonom SSR tojik SSRga, 1926-yilda qirg'iz avtonom viloyati qirg'iz ASSRga aylantirildi. 1936-yilda Qozog'iston ASSR va qirg'iz ASSR ovet sotsialistik respublikalariga aylantirildi va to'g'ridan-to'g'ri SSSRga kirdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtsidagi chegaralar sovet hukumati tomonidan tashkil etilgan XX asr milliy-hududiy chegaralanish natijasida shartli xususiyatga ega bo'lgan, shuningdek, mintaqaning tarixiy-madaniy xususiyatlarini hisobga olmagan. Bundan tashqari, Sovet Ittifoqi davrida ular ma'muriy funksiyalar aksariyat mamlakatlarda belgilamagan. Aynan mana shu sabablar, ko'pchilik bilan birgalikda boshqalar esa turli shakl va shakllarda zamonaviy davlatlararo chegara ziddiyatlarining paydo bo'lishiga olib keldi, ularning bir qismi bugungi kunga qadar hal qilinmagan [5]. Babain tadqiqotlarida masalaning tarixiga to'xtalar ekan, Markaziy Osiyo mintaqasida delimitatsiya va demarkatsiya muammosi SSSR davridagi milliy-hududiy bo'linish shu tarzda sodir bo'lganligi bilan murakkablashganligi ta'kidlaydi. Ularning yashash joylari bir vaqtning o'zida bir nechta respublikalar o'rtasida bo'lingan[6]. Respublikalarni hududiy bo'linishining bu usuli respublikalar aholisining ko'p millatli tarkibini vujudga keltirdi, bu esa, o'z navbatida, respublikalarning nazorat qilish imkoniyatini oshirish va mintaqada separatistik harakatlarning paydo bo'lish ehtimolini minimallashtirish imkonini berdi [7].

Chegaralarni demarkatsiya qilish va delimitatsiya qilish bilan bog'liq davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni hal qilish muammosining dolzarbligi imperativ yordamida chegaralar o'rnatilgan hududlarda alohida manfaatlarga ega harbiy bo'lmagan prinsiplarga asoslangan usullar yoki murosadan foydalanish mojaro. Markaziy Osiyo mintaqasi haqida eng muhim aktyor xalqaro huquq sobiq Sovet Ittifoqi edi, bu yerda hududiy masalalar Moskvaning qattiq nazorati ostida, ba'zan respublikalarning milliy, etnik yoki boshqa manfaatlar hisoga olmagan holda joylashtirilgan. Agar biz kengaytirsak Markaziy Osiyo mintaqasining chegaralari YUNESKO terminologiyasiga muvofiq, birinchi navbatda, doimiy keskinliklarga va Xitoy o'rtasidagi chegarani o'natish bilan bog'liq nizolar va Qozog'iston, Xitoy va Tojikiston va boshqalar. Sovet Ittifoqining qulashi Sovet g'oyalarini rad etishga olib keldi. Markaziy Osiyo, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritdi[8]. Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston zudlik bilan demokratlashtirish sai qadamlar, ammo shunga qaramay inklyuzivlik harakatlari, elita hokimiyatini anglay oldi va o'z siyosiyliklaridan foydalandi.

Milliy tamoyilni aholi va siyosiy chegaralar har doim boshqacha tarzda tashkil etilgan mintaqaga joriy etishga urinish muammolarini keltirib chiqarishi mumkin, deb aytishimiz mumkin: bu Markaziy Osiyoda ham dunyoning hamma joylarida bo'lgani kabi davom etdi. Biroq, Stalin ham, Sovet davlati ham Markaziy Osiyoni millatchi bo'lishga majbur qilmagan. Adib Xolid ta'kidlaganidek, Sovet davlatlarini qurish loyihasi Markaziy Osiyo mahalliy ildizlarga ega edi va ular orasida g'oyalar va harakatlar asosida rivojlandi, musulmon ziyolilar sovet hokimiyatining kelishini oldindan belgilab qo'ygan mintaq. Komissarlar ularni 1920-yillarda shunchaki tanladilar [9]. Bu mintaqada Sovet chegaralari merosi bo'lganligi sababli xavfli kukun bochkalari bo'lganligidir. Bi-bi-si muxbiri Edward Stourton "Guardian" gazetasida O'shdagi zo'ravonliklar vaqtida yozganidek: "Qirg'iziston muammolari ortida nima bor degan savolga javob berish oson: Stalinning mintaqani loyihalash usuli uning muntazam ravishda millatlararo zo'ravonliklarni silkitib turishini taminladi. U 1920-yillarda yangi Sovet respublikalarini tuzish uchun xaritada chiziqlar chizganida, u ozchiliklarni yaratdi va bu ularni beqaror qilishiga majbur bo'ldi[10]. Qirg'iziston haqidagi so'nggi xabarimda ta'kidlaganimdek, zo'ravonlikning etnik ildizlariga shubha bilan qaraydigan ko'plab odamlar bor. Bu ular etnik kelib chiqishi muhim emas deb aytayotgani emas. Aksincha, etnik mojaro tezisining skeptiklari hamma narsani millatga qisqartirish tendensiyasini shubha ostiga olishmoqda. Har doimgidek, ommaviy axborot vositalarining sharhlari ushbu reduksionizm bilan shug'ullanishga intiladi va shu bilan etnik ziddiyatni va shuning uchun etnik kelib chiqish yoki millatning o'zi g'oyasini ibtidoiy va abadiy narsaga aylantiradi. Ba'zi maqolalarda men ko'rgan qiziq bir narsa-mojaroning kelib chiqishini Stalin Qirg'iziston va O'zbekiston chegaralarini qandaydir "bo'linish va

zabt etish” strategiyasini amalga oshirish vositasi sifatida qanday chizganligidan aniqlash. Masalan, Peter Zeihan yozadi: Qirg‘iziston-bu sovet viloyatlari mustaqillikka erishgan taqdirda mahalliy aholi o‘rtasida dislokatsiya, nizo va buzilish ehtimolini oshirish uchun mintaqadagi ichki Sovet chegaralarini o‘zgartirgan Stalindan boshqa hech kim tomonidan yaratilgan sun‘iy qurilish. Yoki, Edward Stourton [10], Stalinning mintaqani qanday yaratganligi uni muntazam ravishda millatlararo zo‘ravonlik bilan silkitishini ta‘minladi. 1924 yilda Stalin mintaqani turli Sovet respublikalariga ajratdi. Chegaralar qat‘iy etnik yo‘nalishlarga yoki hatto geografiya ko‘rsatmalariga rioya qilmasdan o‘zboshimchalik bilan tuzilgan. Ushbu bayonotlar etnik kelib chiqish tarixini ushbu mintaqadagi shaxsiyat tushunchasi sifatida noto‘g‘ri tushunadi. To‘g‘ri, chegaralar Stalin tomonidan Millatlar komissari sifatida chizilgan, ammo Francine Hirsch ta‘kidlaganidek, bu chegaralar bu xalqlarni ataylab yaratishi kerak edi, chunki bolsheviklar o‘zlarining evolutsion teleologiyasiga “qoloq odamlar” uchun millat bo‘lish zarur deb hisoblashgan [11]. Bu mustamlakachilik strategiyasimi? Albatta, Hirsch “davlat homiyligidagi evolyutsionizm” deb atagan narsa bolsheviklarning oq odam yukining o‘z versiyasi edi. Ajablanarlisi shundaki, millat va millatchilikni yo‘q qilish uchun bolsheviklar ularning doyalari edi. Shunday qilib, Agar Stalinni ayblash uchun biror narsa bo‘lsa, bu “qirg‘izlar” va “ozbeklar” uchun geografik asos yaratishda hal qiluvchi rol o‘ynagan. Nima uchun bu muammo? Birinchidan, bu Markaziy Osiyoliklar o‘z o‘tmishining asirlari ekanligidan dalolat beradi. Ikkinchidan, u o‘tmishni qo‘pol ravishda noto‘g‘ri ko‘rsatadi. Markaziy Osiyoning chegaralari murakkab va muammoli bo‘lishi mumkin, lekin ular tasodifiy yoki etnik kelib chiqishi hisobga olinmagan holda chizilmagan[12] eng muhimi, ular Moskvadan bir tomonlama yuklanmagan.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki, mustabid o‘tmishning ayanchli tajribasi shundan yaqqol dalolat beradiki, sho‘ro tuzumining mustamlakachilik tabiati, uni zamonaviylashtirishga bo‘lgan barcha urinishlarga qaramasdan, inqilobdan keying dastlabki yillarda ham, shuningdek, sovet tarixining keyingi davrlarida ham asosan o‘zgarmasdan keldi. Bu narsa imperiya davlatchiligi xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq edi. Milliy chergaralanish oqibatida Markaziy Osiyo zaminida avvaldan yashab kelgan xalqlarning turmush tarzi, xo‘jalik hayoti va milliy an‘analariga jiddiy putur yetkazildi. Yangi tashkil etilgan milliy davlatchilik ularning tarraqqiyotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Bir nech asrlar davomida manfaatlari bir bo‘lib kelgan o‘zbek, tojik, qirg‘iz, qozoq, turkman xalqlarini qo‘shirnoq ishida mustaqil davlatlarga bo‘lib yuborilishi, ularni bunday keyingi hayotida azaliy aloqalari mavjud bo‘lmagan xalqlar singari yashashga majbur etdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. II Tom. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. – bet 508.
2. O‘zbekistonni yangi tarixi. II-kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida //Tuzuvchilar: M.Jo‘rayev, R.Nurullin, S.Kamolov va boshqa; –T.: “Sharq”, 2000, -bet 282-284.
3. Alimova D. Mustabid tuzumning O‘zbekiston milliy boyliklarini tiklash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari (1865-1991 yillar). –T., “Sharq”, 2000, -bet 83.
4. Giinsburg G. Recent History of the Territorial Question in Central Asia // Central Asia Monitor. 1992. № 3/21. P. 12-15.
5. Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости / под ред. Д. Алимова. Ташкент: Фан, 2000. 428 с.
6. Бабаин А. В. Неопределенность пограничных территорий Республики Таджикистан как фактор радикализации населения // Этносоциум и межнациональная культура. М., 2017. № 11 (113). С. 174-183
7. Дмитриева Е.Л. Постсоветская центральная Азия: этнотерриториальные споры и пограничные конфликты (обзор) // Россия и мусульманский мир. 2018, №4 (310).
8. Luong, P. J. (2002). Institutional change and political continuity in Post-Soviet Central Asia: power, perceptions, and pacts. Cambridge University Press.
9. Adeeb Khalid. The Roots Of Uzbekistan: Nation Making In The Early Soviet Union. Central Asia CAP PAPERS 167(CERIA SERIES) May 2016. // <https://centralasiaprogram.org/roots-uzbekistan-nation-making-early-soviet-union/>
10. Edward Stourton. Kyrgyzstan: Stalin's deadly legacy. The Guardian. 2010. <https://www.theguardian.com/commentisfree/2010/jun/20/kyrgyzstan-stalins-deadly-legacy>
11. Francine Hirsch, “Toward an Empire of Nations: Border-Making and the Formation of Soviet National Identities,” *Russian Review*, Vol. 59, No. 2 (Apr., 2000), 202-203. // <https://www.google.com/search?q=Francine+Hirsch>
12. Alexander Morrison. Stalin’s Giant Pencil: Debunking a Myth About Central Asia’s Borders. Eurasianet. Feb 13, 2017. // <https://eurasianet.org/stalins-giant-pencil-debunking-a-myth-about-central-asias-borders>